TURIZM INDUSTRIYASI INDONEZIYA IQTISODIYOTNING MUHIM SEKTORI

Yuldoshev Navro‘z Ilxomboy o‘g‘li
E-mail: navrozyuldoshev93@gmail.com

Qabul qilindi: 15.10.2025
Ko‘rib chiqildi: 16.10.2025
Tasdiqlandi: 17.10.2025

Kalit so‘zlar:
turizm, yalpi ichki mahsulot (YaIM), valyuta, sayyohlar oqimi, globallashuv, immigratsiya

Ключевые слова:
Туризм, валовой внутренний продукт (ВВП), валюта, туристический поток, глобализация, иммиграция.

Keywords:
Tourism, gross domestic product (GDP), currency, tourist flow, globalization, immigration.

Annotatsiya. So‘nggi o‘n yilliklarda turizm industriyasi dunyo mamlakatlarida xususan, Indoneziyada ham daromadlar, ham sayyohlar soni bo‘yicha barqaror o‘sishni ko‘rsatdi. Ushbu maqolada turizm industriyasi Indoneziya yalpi ichki mahsulotiga qo‘shayotgan hissasi, turizm sanoatining aholi bandligini ta’minlashdagi ahamiyati va Indoneziyadagi sayyohlar oqimining Indoneziya iqtisodiyotidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Аннотация. В последние десятилетия индустрия туризма демонстрирует устойчивый рост как доходов, так и числа туристов во многих странах мира, особенно в Индонезии. В данной статье рассматривается вклад индустрии туризма в валовой внутренний продукт Индонезии, её роль в обеспечении занятости и значение туристических прибытий в Индонезию для экономики страны.


Annotation. In recent decades, the tourism industry has demonstrated steady growth in both revenue and tourist numbers in many countries worldwide, particularly in Indonesia. This article examines the tourism industry's contribution to Indonesia's gross domestic product, its role in employment, and the significance of tourist arrivals to the country's economy.

Bugungi kunda turizm industriyasi Indoneziya yalpi ichki mahsulotiga qo‘shayotgan hissasi 4,1 %[1] ni tashkil qilmoqda. Indoneziyadagi turizm iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi shuningdek, valyuta daromadlarining

[1]https://kemenparekraf.go.id/en/articles/minister-sandiaga-2023-tourism-creative-economy-target-achievement-needs-a-deregulation-support

muhim manbai hisoblanadi. Mamlakat 2017 yilda jahon sayyohlik sanoati bo‘yicha 20-o‘rinni, dunyodagi eng tez o‘sayotgan sayyohlik sektori 9-o‘rinni, Osiyoda 3-o‘rinni va Janubiy Sharqiy Osiyoda eng tez o‘sayotgan sayyohlik sektori sifatida qayd etildi.[2] Shu o‘rinda turizm sanoati Indoneziya mamlakatida keng iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi. Ushbu o‘sishni ta'minlovchi omillarga daromadlar va boylikning o‘sishi, transportning yaxshilanishi, turmush tarzi va iste'mol qadriyatlarining o‘zgarishi, bo‘sh vaqtning ko‘payishi, xalqaro ochiqlik va globallashuv, immigratsiya, maxsus tadbirlar, ta'lim, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, destinatsiya marketingi va reklamasi, umumiy rivojlanishning yaxshilanishi kiradi[3].

Indoneziya iqtisodiyotida turizm – transport, joylashtirish, taom va ichimliklar, ishlab chiqarish sanoati, savdo va xizmat ko‘rsatish kabi sohalarning rivojlanishiga hamda bandligi oshishiga xizmat qilmoqda. Xususan 2018 yilda sektorda 2022 yilga nisbatan bandlar ulushi 85 foiz, 1.17 barobarga oshgan.



1 – rasm Indoneziyada 2018-2022- yillarda turizm sektorida bandlar dinamikasi (million nafar[4])

Manba: *www.statista.com*


[2] https://en.wikipedia.org/wiki/Foreign_exchange_reserves

[3] Dr. M. Agus Cholik. Europian Journal of Research and Reflection Management Sciences, INDONESIA. 2017, Vol. 5 No. 1 – P.49.

[4] https://www.statista.com/statistics/1006336/total-number-of-employees-in-tourism-industry-indonesia/ Ma’lumotlar asosida tuzildi. (25.11.2024)

Indoneziya hukumati turizmni rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Misol uchun, Bali, Lombok, va Yogyakarta kabi hududlarda turizm iqtisodiy faoliyatning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Turizm sanoatini diversifikatsiya qilish va ekologik turizmni rivojlantirish kelajakda yanada ko'proq ish o'rinlarini ta'minlashga yordam beradi

Mamlakatga tahshrif buyurgan sayyohlar soni 2013 yilda 8 million nafarni tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2018- yilda qarib ikki barabarga oshgan va xorijiy sayyohlar soni 16 million nafarni tashkil qilgan[5]. Sayyohlar oqiminig oshishiga yuqorida sanab o'tilgam omillar asosiy sabab sifatida ko'riladi.



2-rasm 2013-2023 yillarda Indoneziyaga tashrif buyurgan sayyohlar soni [6]

Manba: *www.statista.com*

Indoneziyaga xalqaro sayyohlar tashrifi COVID-19 pandemiyasi davrigacha yani 2019- yilgacha sezilarli ravishda oshib borayotgan edi. 2019- yilda Indoneziya 16,1 million xalqaro mehmonni qabul qildi ammo bu ko'rsatkich 2020-yilda pandemiya sababli qarib 74 foizga kamayib, 4,1 millionga

[5]Albert Hasudungan. Jurnal Ekonomi Bisnis dan Kewirausahaan,- Jakarta:Indonesia, 2021, Vol. 10, No. 1 – P.74. Ma'lumotlar asosida tuzildi

[6] https://www.statista.com/statistics/707633/number-of-international-visitor-arrivals-in-indonesia/ (27.11.2024)

pasayib ketdi. 2021- yilga kelib, Indoneziya atigi 1,1 million tashrif buyuruvchi bilan xalqaro sayyohlar sonining yanada qisqarishini boshdan kechirdi. Kiruvchi turistik tashriflar 2022 yilda 5,9 million mehmonni tashkil etdi va bu tendentsiya 2023 yilda 11,7 million mehmon bilan davom etdi. Biroq, bu hali ham 2019 yilga ya'ni pandemiyadan oldingi davrga nisbatan 28%[7] kam edi.

Indoneziyaga asosan Xitoy, Tayvan, Yaponiya, Janubiy Koreya, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Australiya, Hindiston va boshqa Osiyo va Yevropa mamlakatlaridan sayyohlar oqimi kuzatiladi.

1- jadval

Indoneziyaga 2013-2022- yillarda mamalakatlarbo'yicha sayyohlar oqimi ko'rsatkichlari (Ming nafar[8])

Mamlakatlsar	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Xitoy	807.4	926.8	1,260.7	1,556.8	2,093.2	2,139.2	2,072.3	239.8	54.7	144.2
Tayvan	245.3	244.0	227.9	252.8	264.3	208.3	207.5	35.7	1.4	24.7
Yaponiya	491.6	525.4	549.7	545.4	573.3	530.6	519.6	92.2	6.0	73.5
Janubiy Koreya	343.6	370.1	387.5	386.8	423.2	358.9	388.3	75.6	9.5	121.3
AQSh	234.1	251.4	276.0	316.8	344.8	387.9	457.8	91.8	22.0	171.3
Buyuk Britaniya	228.7	249.2	292.7	352.0	378.1	392.1	397.7	70.0	5.2	165.6
Frsnsiya	190.9	210.1	212.6	256.2	274.1	287.9	283.8	43.4	3.8	131.9
Australiya	998.0	1,128.5	1,099.1	1,302.3	1,256.9	1,301.5	1,386.8	256.3	3.2	654.5
Hindiston	201.0	223.6	319.6	422.0	536.9	595.6	657.3	111.7	6.7	268.6
Germanya	168.1	184.8	203.6	243.9	267.8	274.2	277.7	46.4	3.4	127.8

Manba: *ASEAN statistical yearbook*


Indoneziya ko'p tashrif buyuruluvchi mamlakatga aylanishining asosiy sababi sifatida mamlakatda turizm rivojlanishi uchun yetarlicha shart-sharoitlarning mavjudligi ko'riladi. Xususan: tropik o'rmonlarning boy kolleksiyalari, madaniy maskanlari, tarixiy ibodatxonalari, zamonaviy dam olish

[7] https://roadgenius.com/statistics/tourism/indonesia/#0cffaec2-48dd-4d10-9732-1da116394da5

[8] ASEAN STATISTICAL YEARBOOK, - Jakarta:Indonesia, 2023. – P.226. Ma'lumotlar asosida tuzildi

maskanlari, plyajlar, shopping turizm markazlarining mavjudligi, zamonaviy turizm infratuzulmalari va turizm sanoatining davlat tomonidan so‘ngi yillarda faol qo‘llab- quvvatlanayotganligi umuman olganda boy turistik salohiyatga egaligi orqali mamlakat butun donyo sayyohlarini o‘ziga jalb qilmoqda.

Indoneziyaga keluvchi sayyohlar soni hisobiga mamlakat iqtisodiyotida turizm daromadlari oshib boradi. Sayyohlar o‘z mamlakatlaridan olib kelgan valyutalarini Indoneziyada sarflaydi. Bu mamlakatga qo‘shimcha daromad keltiradi va iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Turizm Indoneziya uchun muhim valyuta manbai hisoblanadi. Ushbu sektor har yili 19 milliard dollardan ortiq valyuta tushumini keltirib chiqaradi. Ushbu daromadlar savdo taqchilligini muvozanatlashda yordam beradi, mamlakatning valyuta zaxiralarini qo‘llab-quvvatlaydi va iqtisodiy barqarorlikka hissa qo‘shadi. Turistik xarajatlar turar joy, ovqatlanish, transport, o‘yin-kulgi va xaridlarni o‘z ichiga olgan keng sektorni qamrab oladi.



3- rasm Indoneziyaning turistik daromad dinamikasi[9] (million AQSh dollar)

Yuqoridagi ma’lumotlarga qaraladigan bo‘lsa 2009- 2023- yillar oralig’ida Indoneziya iqtisodiyotigda turizm industriyasidan olingan daromadlari

[9] https://www.ceicdata.com/en/indicator/indonesia/tourism-revenue Ma’lumotlar asosida tuzildi (29.11.2024)

statistikasida sezilarli darajada o‘zgaruvchan tendensiya kuzatilgan. Xususan: 2009- 2019- yillarda turizm industriyasidan olingan daromadlari 6 milliondan 18,4 million AQSh dollargacha barqaror o‘sib borgan. COVID-19 pandemiyasi 2020- 2021- yillarda esa barcha sohalarga ta’sir qilgani kabi Indoneziya turizmiga ham katta zarba berdi. COVID-19 pandemiyasi sababli bu ko‘rsatkich qarib 6 barobarga kamayib 3 million AQSh dollarni tashkil qilgan. 2022- 2023- yillarda esa asta- sekinlik bilan o‘sish kuzatilgan ya’ni 2022- yilda 6,2 million, 2023- yilda esa turizm sohasidan olingan daromadlar 11 million AQSh dollarga[10] ko‘tarilgan. So‘nggi yillardagi turistik o‘sish tendentsiyalariga asoslanib, turizm sektori 2019 yilgi COVID-19 pandemiyasining ta'siridan asta-sekin tiklanib borayotgani ko‘rinib turibdi.

Indoneziyada turizmdan olinadigan daromadlarning o‘sishida mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyohlarning mamlakatda o‘rtacha tunab qolish muddatlarining uzayishi omili sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun COVID-19 pandemiyassigacha bo‘lgan davrda Indoneziyaga tashrif buyuruvchi sayyohlarning o‘rtacha tunab qolish muddatlari 8 kun. Pandemiyadan keyingi tiklanish davriga qaralsa ya’ni 2021-2023 yillarda bu ko‘rsatkich 13-15[11] kunni tashkil qilgan.

Turizm Indoneziyaga sezilarli mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi. Sektor infratuzilmani, jumladan, aeroportlar, mehmonxonalar, kurortlar va sayyohlik obyektlarini rivojlantirishga katta sarmoya kiritadi. “10 ta yangi bali” loyihasi kabi hukumat tashabbuslari yangi sayyohlik yo‘nalishlarini rivojlantirish va turizm sanoatini diversifikatsiya qilish va mustahkamlash uchun qo‘shimcha investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan. Yaxshilangan infratuzilma foydalanish

[10] https://www.ceicdata.com/en/indicator/indonesia/tourism-revenue
[11] https://www.statista.com/statistics/1192956/indonesia-average-length-of-stay-of-inbound-visitors/

imkoniyatini va umumiy sayyohlik tajribasini yaxshilaydi va barqaror o‘sishga yordam beradi.[12]

Indoneziya turizm vaziri Sandiaga Unoning 2024-yilgi Xalqaro turizm investitsiya forumidagi nutqiga ko‘ra, “Indoneziya turizm sanoati qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmalarga sarmoya kiritishga juda muhtoj, chunki bugungi kunda investorlar o‘z pullarini mehmonxona va restoranlarga qo‘yishni afzal ko‘rishadi. Hukumat ma’lumotlariga ko‘ra, Indoneziyaning turizm va kreativ iqtisodiyot tarmoqlari 2023-yil davomida taxminan 3,6 milliard dollar sarmoya jalb qilgan. Bu arxipelagiya mamlakati o‘sha yili belgilagan 2.6 milliard dollarlik turizm sarmoyasidan ancha yuqori. Indoneziyada 2023-yilda to‘plagan 366 million dollarga yaqin to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar restoranlarga, undan keyin yulduzli mehmonxonalarga (319 million dollar) va fitnes markazlariga (34 million dollar) yo‘naltirildi. [13]

Turizm Indoneziyaning turli qismlarida iqtisodiy manfaatlarni taqsimlash orqali mintaqaviy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Bali, Yogyakarta va Lombok kabi mashhur sayyohlik yo‘nalishlari sezilarli iqtisodiy faollikni boshdan kechirmoqda, ammo hukumatning yangi yo‘nalishlarni rivojlantirishga e'tibor qaratilishi bu imtiyozlarni kam rivojlangan mintaqalarga tarqatishga yordam beradi. Ushbu mintaqaviy rivojlanish iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytiradi va inklyuziv o‘sishga yordam beradi. Turizm sektori Indoneziya iqtisodiyotiga sezilarli multiplikativ va bilvosita ta'sir ko‘rsatadi. Ushbu o‘zaro bog'liqlik qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va chakana savdo kabi turli sohalarda o‘sishni rag'batlantiradi va bevosita turizm xarajatlaridan tashqari

[12] https://www.linkedin.com/pulse/economic-contributions-tourism-economy-indonesia-bulut-bagci-tn3af#:~:text=Tourism%20is%20a%20crucial%20source,and%20contribute%20to%20economic%20stability. (05.12.2024)
[13] https://jakartaglobe.id/business/indonesias-tourism-sector-is-still-underinvested-sandiaga (07.12.2024)

kengroq iqtisodiy ta'sir yaratadi. Turizmning bunday iqtisodiy taraqqiyotida sohani tartibga solish mexanizmlarining takomillashuv istiqbollaridan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rimsky K. Judisseno. Destination Strategies in Tourist Development in Indonesia, 1945–2014: Problems of Bali Centredness. – Victoria: Vioctoria Univercity, 2015. – 308 p.

2. Dr. M. Agus Cholik. Europian Journal of Research and Reflection Management Sciences, INDONESIA. 2017, Vol. 5 No. 1 – P.49

3. Albert Hasudungan. Jurnal Ekonomi Bisnis dan Kewirausahaan,-Jakarta:Indonesia, 2021, Vol. 10, No. 1 – P.74

4. OECD (2020), “Indonesia”, in *OECD Tourism Trends and Policies 2020*, OECD Publishing, Paris. [elektron manba] – Manba: DOI: https://doi.org/10.1787/6c4fc1cd-en

5. ASEAN statistical yearbook, -Jakarta:Indonesia, 2023. – 342 p. [elektron resurs] – Manba: https://asean.org/wp-content/uploads/2023/12/ASEAN-Statistical-Yearbook-2023.pdf